

## PROFILAKTIKA INSPEKTORINING HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASIDA ADLIYA ORGANLARI BILAN XAMKORLIGINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

**Xasanov Ulug'bek Muzaffar o'g'li**

*IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi,  
318 guruh kursanti.*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada huquqbuzarliklarning oldini olish uning uning kelib chiqish sabab va sharoitlarini bartaraf etish borasida Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining adliya organlari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi belgilangan chora tadbirlar, ularning tushunchasi va ahamiyati, shuningdek samaradorligini ta'minlashga oid taklif va xulosalar berib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *huquqbuzarlik, jinoyatchilik, jazo tizmi, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, hamkorlikdagi chora tadbirlar, jazoga hukm qilingan shaxslar, voyaga yetmagan shaxs, qonunchilik normasi.*

Bugungi kunda profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir faoliyatining eng muhim o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu uni amalga oshirish tizimidir va undagi faoliyatning amaliy tashkil qilinishini takomillashtirishdir.

Shu bois, profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir faoliyati tashkil etishdagi mavjud tahlildan avval uning o'ziga xos tizimi va faoliyatining asosiy yo'nalishlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri bu targ'ibotni samarali xamda xamkorlikda tashkil eta olishdir. Targ'ibot qanday ko'rinishda bo'lmasin, kishi ongi, dunyoqarashi kaliti hisoblanadi.

Shunday ekan, huquqbuzarliklar profilaktikasida aholida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishda targ'ibotdan unumli va samarali foydalanish zarur. Huquqiy ong fuqarolarining o'z huquq va burchini anglashi, kelajak hayoti uchun zarur bo'lgan huquqiy ma'lumotlardan xabardor bo'lishi, Bosh qomusimizdan tortib qabul qilinayotgan qonunlarning mazmun-mohiyatini tushunib yetishi, fuqarolik va boshqa turli huquqiy ko'rsatmalarni bilishi, huquqiy targ'ibotlarni qanday ko'rinishi bo'lmasin uni tahlil qila olishi, o'z huquqini himoya qila olishida namoyon bo'ladi.

Bu esa qonunni buzish nechog'lik xatoligini, unga nisbatan doimo hurmatda bo'lish kerakligini tushunishga olib keladi. Ikkinchidan, hududdagi yoki mahalladagi boshka davlat tashkilotlari xamda fuqarolik jamiyatining institutlari

bilan hamkorlik ham muhim o'rin tutadi. Bunda fuqarolarda qonunga nisbatan hurmat xissini uyg'otish muxim omil sanaladi. Uchinchidan, huquqiy tarbiya uzluksiz ekanligini inobatga olish lozimdir. Uni fuqarolarga yoshlikdan boshlab qo'llanib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Voyaga yetmaganlar xuquqiy tarbiyasi maktabgacha ta'lim muassasalaridayoq xulq-atvor qoidalaridan xabardor bo'lishi, ma'naviy va ba'zi huquqiy normalar to'g'risida boshlang'ich tushunchalar olishi, kelgusida xayoti davomida esa bu bilimlar kengaytirilishi, chuqurlashtirilishi va huquqiy maqom kasb etishi zarur. Fuqarolarga huquqiy tarbiya berishdan ko'zlangan maqsadlardan biri – har bir fuqaro huquqiy madaniyatni o'zlashtirib olishiga erishish zarur.

Bu orqali huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda Adliya organlari bilan hamkorlikni va ularning huquqbuzarliklar profilaktikasidagi o'rnini belgilab beradi. Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasida Adliya organlari bilan xamkorligiga doir faoliyatining eng muhim o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri bu fuqarolarni huquqiy jihatdan tarbiyalanishining shakl va usullari har xil bo'lgani bilan maqsadi bitta ekanligini hisobga olish lozimligidadir. U ham bo'lsa fuqarolarni jinoyat sodir qilishdan qaytarish, ularga qonun, jinoyat, jazo nima ekanligini, jinoyatning oqibatlari nimalarga olib kelishini sodda, aniq xamda to'g'ri misollar yordamida tushuntirishdan iborat.

Toki, fuqarolar ongida qonunlarimizga hurmat uyg'otib, qonun talablariga qat'iy amal qilish va qonunbuzarlikka murossasiz bo'lish tuyg'usi shakllansin. Xuddi ana shunday tuyg'ugina komil inson tarbiyasida katta o'rin tutadi. Zero, komil inson g'oyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, uning ma'naviyatida uzviy bir qism bo'lib keladi. Bundan tashqari, birinchi o'ziga xos xususiyatdan kelib chiqqan holda huquqiy xodisalarga baxo berishda, profilaktika inspektorlari xamda Adliya organlari shakllangan qadriyatlarimizga, dunyoqarashimiz va mentalitetimizga siyosiy-huquqiy madaniyatimizga tayanishi zarur. Aytish joizki, huquqiy qadriyatlar tizimini va ularga mos bilimlar va ong saviyasini tashqaridan kiritib bo'lmaydi. Bunga faqat huquqiy tarbiya, huquqiy bilimlarni izchil targ'ibot-tashviqot qilish orqali erishiladi. Huquqiy madaniyatning muxim funksiyalaridan xisoblangan huquqiy ijtimoiylashtirish funksiyasi fuqarolarning huquqiy sifatlarini, fazilatlarini shakllantirish orqali o'rganilishi mumkin. Shubhasiz, ushbu jarayonga huquqiy faoliyat jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Ayni vaqtda fuqarolarni huquqiy jihatdan ijtimoiylashtirish, uni faollashtirish uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan huquqiy tarbiya ishlarini olib borish, ularning yalpi savodxonligini ta'minlashga oid chora-tadbirlarni tashkil etish, ularga malakali yuridik yordam ko'rsatish, shaxsning o'zini-o'zi tarbiyalashi, o'z saviyasini oshirishi ustida ishlashini faollashtirishni talab etadi.

Mazkur funksiyani amalga oshirishning asosiy natijasi fuqarolarning huquq normalariga chuqur hurmat-e'tiborini, xuquqqa nisbatan itoatkorlikni hamda ichki huquqiy e'tiqodni shakllantirishdan iborat bo'ladi. Aynan shunday e'tiqod har qanday huquqbuzarliklarga murosasiz bo'lish, qonunlarni xurmat qilish, qonunchilik va huquqiy tartibot talablariga qat'iy rioya qilish ko'nikmalarini o'zida ifoda etadi va jamiyatni tinchlik va farovonlikka yetaklaydi. Xuquqiy madaniyat kommunikativ funksiyani ham bajaradi. Ushbu funksiya fuqarolarning huquqiy sohadagi muloqotini ta'minlar ekan, shu muloqot orqali mavjud bo'ladi va ta'sir etadi. Bu yerda fuqarolarning fakat huquqiy harakat doirasidagi bevosita muloqoti nazarda tutilibgina qolmasdan, balki ularning bizga shaxsan notanish bo'lgan, makon va zamonda bizdan muayyan oraliqda bo'lgan tengdoshlarimiz, o'tmish avlodlarimiz bilan bevosita muloqoti ham nazarda tutilmoqda. Bunday muloqot yozma yuridik asarlar vositasi bilan ta'minlanadi va bugungi kunda u ommaviy axborotvositalarining takomillashuvi bilan yanada rivojlanadi. Huquqiy muloqot fuqarolar va profilaktika inspektori o'rtasidagi o'zaro muloqot bo'lib, huquq doirasida erkin mohiyat sifatida maydonga chiqmog'i lozimdir.

O'z navbatida qonun targ'ibotchilarining shaxsi, ya'ni profilaktika inpektorlari, adliya organlari xodimlari yoki boshqa xuquqni muxofaza qiluvchi organlar xodimlarining nazariy huquqiy bilimi, fikrlash doirasi, xulq-atvori, amaliy tajribasi, hozirjavobligi, kerak bo'lsa notiqlik san'ati, jamoada, mahallada va fuqarolar orasida tutgan o'rni va obro'si, o'z navbatida, ma'naviyati xam muhim o'rin tutadi. Ana shunday fazilatlarga ega bo'lgan targ'ibotchilargina atrofdagilarning qiziqishini, xohishini kuchaytirishi, rag'batlantirishi, kishilar ongiga nimanidir singdirishga erishishi mumkin. Zotan, huquqiy targ'ibotning samarasi targ'ibotchining kishilarni misol va dalillar bilan ishontirishi va ularni o'z ortidan ergashtira olishida namoyon bo'ladi. Huquqiy targ'ibot va ma'rifat orqali aholining huquqiy madaniyatini shakllantirish va yuksaltirish kabi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyati shakllanishi hamda yuksalishini ta'minlash, shuningdek aholining ijtimoiy faolligini oshirish;

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyati shakllantirish hamda yuksaltirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari rolini kuchaytirish;

Huquqiy madaniyat bashoratlar ehtimoli bo'lgan o'ziga xos qadriyatlardan iborat. Bunday hollarda hatto ma'lum darajadagi noaniqlik yetarli asoslangan bashorat qilish imkoniyatini cheklab qo'yadi. Huquqiy madaniyatga bevosita aloqador bo'lgan juda ko'p qarama-qarshiliklarga duch kelish mumkin. Bularning barchasi albatta, huquqiy madaniyatga ta'sir qiladi. Shu bois xuquqiy madaniyatni

shakllantirishda xuquqiy taraqqiyotning istiqboldagi ijobiy, yuksakroq modelini ko'zlagan xamda tasavvur etgan xolda ish tutish lozim.

Mamlakatimizda demokratik xuquqiy davlatni shakllantirish va va adolatli fuqarolik jamiyatini vujudga keltirishni ta'minlovchi nazariy va tashkiliy asoslarning negizi bu mamlakatimiz fuqarolarining xuquqiy madaniyatini yuksaltirish xisoblanadi.

Shu sababdan milliy qonunchiligimiz bilan bir vaqtda xalqaro xuquqning dunyo miqyosida tan olingan normalari xam xayotimizga tatbiq etilmoqda. Xozirgi vaqtda xalqaro xuquqning jaxonda tan olingan prinsiplari va normalarining milliy xuquqdan ustunligi e'tirof etilmoqda, bu xuquqiy madaniyatimizga barcha ilg'or taraqqiyot o'zgarishlari uchun yo'l ochmoqda, xalqaro xuquqda o'z ifodasini topgan umuminsoniy qadriyatlar va ideallarni xuquqiy madaniyatimiz uchun mezon va yo'nalish sifatida belgilamoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/8440>.

2. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 14 noyabrdagi "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-996-son qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrda «Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida» PF-209-son Farmoni.

4. Таштемиров А. А. Ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фош этишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари //World of Science. – 2023. – Т. 6. – №. 6. – С. 169-175.

5. Таштемиров А., Курчибоев Ж. Вояга етмаганлар ҳуқуқбузарлигининг профилактикасида таълим ва тарбиянинг ўрни ва аҳамияти //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 130-135.

6. Таштемиров А. А., Калауов С. А. Ёул ҳаракати хавфсизлиги ривожланиш концепциясининг истиқболлари ва киберхавфсизлигини таъминлаш зарурати //barqarorlik va etakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 8. – С. 245-250.

7. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий тармоқлар орқали содир этилаётган жиноятларга қарши курашиш чора-тадбирлари //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 24-31.

8. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий профилактика объекти сифатида алкоголизм таъсиридаги шахслар билан ишлаш фаолиятини такомиллаштириш //So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – Т. 6. – №. 12. – С. 552-558.

9. Tashtemirov A., Po'latov A. Ayollar jinoyatchiligining oldini olish chora-tadbirlari //Иновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 75-78.

10. Таштемиров А., Нурматов Н. Айрим хорижий давлатларнинг тезкор кидирув фаолиятида соҳавий ҳамкорликнинг таҳлили //Иновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 190-197.

11. Таштемиров А. А. и др. Зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тушунчаси ва ўзига хослиги //Innovative achievements in science 2024. – 2025. – Т. 4. – №. 37. – С. 82-90.